



ALISHER NAVOIY ASARLARIDA “OTA” KONSEPTINING IFODALANISHI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Marjona Orifova

*SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari
va madaniyati instituti 3-bosqich talabasi*

U. Rashidova

Ilmiy rahbar: dots.

Annotatsiya: *Mazkur maqola tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kognitiv tilshunoslikka bag‘ishlangan bo‘lib, Alisher Navoiy asarlarida "ota" konseptining kognitiv talqini xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ota terminining o‘zbek tilining izohli, etimologik lug‘atlaridan ma‘nolari izohlanadi. Bundan tashqari, mazkur konseptning semantik, leksik, kognitiv jihatlarini ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ota termini, etimologiyasi, kognitiv tilshunoslik, konsept, pir, murid, quyosh, oy, gulshan, xurshid, kun.*

Bugungi kunda antropotsentrik yo‘nalishda kuzatishlar olib borish zamonaviy tilshunoslikning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Antropotsentrik tahlil ko‘rinishlari, xususan, matn tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo‘nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq organish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog‘liqdir. So‘nggi yillarda "konsept" termini tilshunoslikda eng ko‘p qo‘llanadigan asosiy tushuncha sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Konsept-tafakkurda muhrlangan asosiy tushunchalardir. Konsept tushuncha bilan ifodalash munosabatida bo‘lgan ma‘lum lingvistik vositalar to‘plamini ajratib ko‘rsatish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Konseptning shakllanishi tushunchaning yangi madaniy, ekspressiv, emotsional va milliy mazmun qirralariga ega bo‘lib borishi bilan belgilanadi.³⁹ Mazkur yo‘nalish bo‘yicha yurtimizda tadqiqot ishlari qilinmoqda. Shu o‘rinda Sh.Safarov, N.Mahmudov, T. Mardiyev, E.Mamatov, M.Rahmatova, O‘.Yusupov, G.Hoshimov kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta‘kidlash joiz. Tilshunos M.Raxmatovanning “Ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyatida “go‘zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari” deb nomlangan falsafa doktorligi uchun yozilgan dissertatsiyasining ikkinchi bobida o‘zbek xalq maqollarida “go‘zallik” konseptiga oid

³⁹ Abjalova M., Rashidova U. Tilshunoslik nazariyasi. Tilshunoslikning mantiqiy asoslari: o‘quv qo‘llanma, -T. : Bookmany print, 2025.-B.118.



tushunchalar tahlilga tortilgan bo‘lib, maqollarda go‘zallik muayyan, lekin subyektiv ekanligi isbotlab berilgan. Xuddi shu yo‘nalishda O. Anorqulovning O‘zbek tilida "Ota" konseptining lisoniy-kognitiv talqini, F. Jalolova "O‘gay ona" konseptining lingvomadaniy talqini, M. Xudoyberdiyeva "Ayol konsepti va uning leksik-semantik tahlili" H. Hasanov tomonidan esa "Chol konseptining lisoniy-kognitiv talqini" mavzularida ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan.

"Ota" so‘zi O‘TILida lug‘aviy ma‘nosi quyidagicha berilgan: 1."farzandli, bola-chaqali er kishi" degan ma‘noni bildiradi. 2.Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi. 3.O‘g‘il bolani erkalatish uchun ishlatiladi. 4.Ko‘chma. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida. 5.Ko‘chma. Mehribon boshliq, rahnamo haqida. 6.El-yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug‘ zot haqida⁴⁰. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida esa ota "erkak kishi o‘z farzandiga nisbatan". Otaning ko‘ngli-bolada, bolaning ko‘ngli-dalada (Maqol). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu so‘z ata tarzida talaffuz qilingan (ESTYA, I, 200; PDP, 361; Devon, I, 114; DS, 65). ata >ätä.⁴¹

O‘zbek lisoniy madaniyatida erkakning stereotipi quyidagi tushunchalardan shakllanadi: ma‘lumot, kasb, nikoh, oila, boquvchining roli, mas‘uliyat, ota-onalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, lavozimlarga erishish, bolalarning kelajagini ta‘minlash, nabiralar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, lavozimda ko‘tarilish, boquvchining roli, oila o‘xshash hisoblanadi.⁴²

Ato - ota terminining qadimiy shakli. Bu termin O‘TILida "in'om qilmoq", "baxsh etmoq", "bermoq" deb izohlanadi. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida ota so‘zining qadimiy shakli ato termini qo‘llanilgan. Navoiy ota-onaga hurmat, e‘zoz, ularning naqadar mo‘tabar zot ekanliklariga alohida baytlar bitilgan:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birsin oy angla, birsin quyosh. (Hayrat ul-abror dan). Yuqoridagi misralarda farzand otasiga boshini fido aylashi, jismini onasining boshiga sadqa qilishiga da‘vat

⁴⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли, 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекист энциклопедияси, 2008. -Б. 152

⁴¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. I-jild, -Toshkent: Universitet. -B. 256.

⁴² Anorqulova O. O‘zbek tilida "Ota" konseptining lisoniy-kognitiv talqini. Filol. fan. fals. doktori. diss. -Samarqand, 2023.-145b.



etgan. Ota-ona farzandi uchun tun-u kun yo'lini yoritguvchi nur bo'lsa, sen ularning birisini oy, birisin quyosh bilgin deb ta'kidlagan.

Bo'lsa xurshid atovu Zuhra ano,

Tug'magay sen kebi zebo mutrib. (Favoyid ul-kibar).

Yuqoridagi baytda otani xurshid ya'ni quyoshga, onani esa Zuhro (Venera) sayyorasiga o'xshatgan. Sayyoralarning joylashuviga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quyoshdan keyin Zuhro sayyorasi keladi. Bundan ko'rinib turib diki, otaning qimmati yuqori darajada ifodalangan

Zoda murid-u otani pir bil,

Har ishida hukmig'a ta'sir bil.

Bo'lma bu pir olida taqsirliq,

Istar esang davlat ila pirlig.(Hayrat ul-abror)

Yuqoridagi baytda farzandingni murid-u, otangni pir deb ta'kidlamoqda. Chunki har bir ishda ota hukmi (duosi, ixtiyori)ning ta'siri bor. Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, agar baxt-u davlat topib, qarilik nashidasini surishni istasang, bu pir, ya'ni otang oldida qusurli - gunohkor bo'lmaslikni uqtirgan.

Quyidagi baytda otani sarv daraxtiga qiyoslagan. Chunki sarv daraxti tik, adl o'sganligi sababli, otaning tashqi ko'rinishi nazarda tutilgan. Sarv daraxti ramziy ma'noda qo'llanilgan bo'lib, otaning qaddi-qomati raso, tik, kelishgan ekanligini ifodalamoqchi bo'lgan. Sarvdek otadan, guldek onadan bunday gulrux farzand tug'ilishiga lol qolganini bildirgan.

Sarvdek bo'lsa bu gulshanda ato, guldek ano,

Mumkin ermas tug'mog'i sen sarvi gulruxdek o'g'ul.(Favoyid ul-kibar)

Farzand otaning parchasi bo'lib, o'z farzandini jonidan aziz ko'rgani uchun uning xatolari arzimas ko'rinadi. Modomiki, xato qilsa ham u xatoni xato hisoblamaydi: Chun o'g'ul aybin ato ko'rmas, Ko'rsa ham qilg'onin xato ko'rmas. (Navodir ush-shabob)

Karam va muruvvat ato va anodurlar,

Vafo va hayo ikki hamzod farzand.

Har necha ul ikovga nur bila safodur,

Bu ikavga ittisol bila payvand.(Mahbub ul-qulub)

Yuqoridagi parchada ota-onani karam va muruvvat fazilatiga tenglashtirib, vafo va hayo tushunchalari ulardan tug'iladigan farzand misol, ularga nur va safodur, bu xislatlarni o'zida payvand qilgan bo'lsa nur ustiga a'lo nurdir, degan fikrni anglashimiz mumkin.

Kimki ato amrig'a qo'yimas bo'yun,

Pir ila maxdum ishin der o'yun.

Bilki, chekar Tengri yo'lidin ayoq.

Tengri bila oq bo'lar, pir-la oq.(Badoye ul-vasat)

Yuqoridagi baytda otaning amriga quloq tutmaslik go'yo pir, maxdum ishini o'yin qilishga teng deb hisoblaydi. Agar farzand otasining so'zini ikki qilsa, Tangriga ham,



otasiga oq bo'lishini ta'kidlaydi. Oqpadar so'zi otasi voz kechgan, oq qilgan farzand ma'nosini bildiradi. Xalqimizda "Ota rozi-Xudo rozi" degan maqol bejizga aytilmaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, har bir xalqning konseptlari ularning tili va madaniyatida namoyon bo'ladi. Biz tadqiq etgan "ota" konsepti ham madaniy-ramziy ma'nolarni o'z ichiga olganini tahlillar davomida guvohi bo'ldik. Navoiyning biz ko'rib chiqqan asarlarida quyosh, oy, kun, gulshan, pir, ustoz, sarv, beminnat zot kabi konseptlarni ifodalab kelgan. Mazkur konsept o'z atrofida oila boshlig'i, nasihatgo'y, duogo'y, mehribon, saxiy, g'amxo'r kabi ma'nolarni jamlagan. Mana shunday umumlashma ma'nolar yig'indisi "ota" so'zining konsept darajasiga chiqishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли, 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. -687б.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati, I-jild, -T.: Universitet. - 600b.
3. Abjalova M., Rashidova U. Tilshunoslik nazariyasi. Tilshunoslikning mantiqiy asoslari: o'quv qo'llanma, -T. : Bookmany print, 2025.-268b.
4. Anorqulova O. O'zbek tilida "Ota" konseptining lisoniy -kognitiv talqini. Filol. fan. fals. doktori. diss. -Samarqand, 2023.-145b.
5. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фанлари доктори дисс. автореф. – Тошкент, 2015.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. -Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018, - 171b.
7. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10жилдлик, -Т. : Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. -867б.

